TILSHUNOSLIK

UDK: 811.161.1.344 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a96**

SOMATIK KODLAR TADQIQIGA DOIR

ОБ ИССЛЕДОВАНИИ СОМАТИЧЕСКИХ КОДОВ

ON THE STUDY OF SOMATIC CODS

Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna[1], Xusanova Mashxura Axmadjonovna[2]

[1]Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna – Farg'ona davlat unversiteti o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

[2]Xusanova Mashxura Axmadjonovna – Farg'ona davlat unversiteti magistranti

Annotatsiya

Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatda lingvokulturologiyaning asosiy diqqat e'tibori madaniy kodlarni o'rganishga qaratiladi. Madaniy kodlar – ma'lum bir xalqning milliy-madaniy qiyofasini oshishda kalit vazifasini bajaradi. Quyida somatik kod va u ifodalagan ma'noning o'rganilishi hamda ularning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Аннотация

В качестве современного направления лингвистики основное внимание лингвокультурологии уделяется изучению культурных кодов. Культурные коды-служат ключом к повышению национально-культурного имиджа конкретного народа. Ниже приводится анализ изучения соматического кода и значения, которое он представляет, а также их основных характеристик.

Abstract

The modern direction of linguistics in quality, the main attention of linguoculturology is paid to the study of cultural codes. Cultural codes-act as the key in increasing the national-cultural image of a particular people. The following will analyze the study of the somatic code and the meaning it represents, as well as their main characteristics.

Kalit so'zlar: *olamning lisoniy manzarasi, linvokulturologiya, milliy qiyofa, ibora, frazeologik birliklar, madaniyat kodlari, somatik kod, "bosh" so'zi.*

Ключевые слова: *языковая картина мира, линвокультурология, национальный образ, словосочетание, фразеологизмы, коды культуры, соматический код, слово "голова".*

Key words: *linguistic picture of the universe, linvoculturology, national image, phrase, phraseological units, cultural codes, somatic code, the word "head".*

KIRISH

Dunyoning barcha millatlari o'z milliy qiyofasini, milliy an'analarini tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, yurish-turishi va eng asosiysi, tili orqali o'zida mujassam etadi. Shu ma'noda inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi.Til ijtimoiy hodisa ekanligi bilan bir qatorda madaniyat belgisi hamdir. Ma'lumki, qadimdan insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'zaro iqtisodiy-siyosiy, madaniy aloqada bo'lib kelganlar. Bugungi kunda ham xuddi shunday siyosiy-madaniy, ilmiy aloqalar, xalqaro-madaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ya'ni tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha – lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishida turtki bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar ham talaygina. Xususan, Z.I.Saliyeva nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek va ingliz tillarining milliy-madaniy xususiyatlari tahlili [15, 90], R.S.Ibragimova nomzodlik dissertatsiyasida esa o'zbek va fransuz tillarida ayol konseptining ifodalanishini haqida[16,90] tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, N.Mahmudov o'zining "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab"[17,10] nomli maqolasida lingvokulturologiya, xususan, kognitiv tils hunoslik mohiyatini ochib berdi.

Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy sema, pretsedent birliklar, madaniy kod, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalar olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, kod va belgi tushunchalari semiotika (belgilar haqidagi fan)ning asosiy obyekti hisoblanadi. "Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi" [2,57]. Tadqiqotlarda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof qilinadi. D.Xudoyberganova madaniyat

kodini insoniyatning arxetipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o‘zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari sifatida ta’riflaydi [1,15]. Madaniy axborotni tashishda madaniy kodlar kalit vazifasini bajaradi. Demak, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, madaniy kod milliy-madaniy urf-odat, qadriyat va me’yorlarni o‘zida shartli ravishda aks ettiradigan ramziy belgi hisoblanadi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, biomorf kod, ma’naviy kod, antromorf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me’moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi, mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi kabilar qayd etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shuni aytish mumkinki, eng keng tarqalgan kod turlaridan biri bu somatik (inson tana a’zosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan) koddir. Masalan: “bosh” so‘zi bosh ko‘tarmoq, boshi qotmoq, boshida yong‘oq chaqmoq, boshi berk ko‘chaga kirmoq, boshdan kechirmoq, bosh olib ketmoq, boshiga tushmoq, boshdan o‘tkazmoq, boshiga urmoq, boshini aylantirmoq, bosh bo‘lmoq, boshini ikki qilmoq; “ko‘z” so‘zi ko‘zi tushmoq, ko‘z olaytirmoq, ko‘z yummoq, ko‘z tashlamoq, ko‘z ilg‘amas, ko‘zi ochiq, ko‘z ostiga olmoq, ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan, ko‘zi olma termoq, ko‘zi kosasidan chiqmoq; “qo‘l” so‘zi qo‘l ko‘tarmoq, qo‘l bermoq, qo‘l siltamoq, qo‘li uzun, qo‘li shirin, qo‘li kalta, qo‘lidan kelmoq, qo‘lga tushmoq, qo‘l qovushtirib o‘tirmoq, qo‘ldan boy bermoq, qo‘lga olmoq; “oyoq” so‘zi oyoq osti bo‘lmoq, oyoq ostidan narini ko‘rmaslik, oyoq osti qilmoq, oyog‘i bilan ko‘rsatmoq, oyoq tiramoq, oyog‘iga bolta urmoq, oyog‘iga bosh urmoq, ikki oyog‘ini bir etikka tiqmoq, oyog‘idan chalmoq; “quloq” so‘zi qulog‘i qomatga kelmoq, qulog‘iga tanbur chalmoq, qulog‘iga quymoq, ko‘z-quloq bo‘lmoq, qulog‘i tom bitmoq; “yuz” so‘zi yuzi chidamaslik, yuziga oyoq qo‘ymoq, yuziga solmoq, yuz o‘girmoq, yuzi yorug‘, yuzi yerga qaramoq, yuzi shuvut bo‘lmoq, yuz ko‘rmas bo‘lmoq kabi birikmalarda inson tana a’zolari turli semalarda qo‘llanmoqda. Barchasi uchun umumiy xususiyat bu – ularning har biri inson tanasi a’zosi ekanligi. Ammo ular ibora tarkibida ko‘chma ma’noda qo‘llanib, turli ma’no nozikligini anglatadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida “bosh” somatik kodi tahliliga e’tibor qaratamiz: “boshdan oyoq” – sinchiklab. *Notanish odam menga qaradi-yu, boshdan oyoq ko‘z yugurtirib chiqdi* [10,3]; “boshi osmonga yetmoq” – qattiq quvonmoq. *Ismat, haqiqatan ham, katta mukofot olgandek boshi osmonga yetadi* [10,25]; “boshiga ko‘tarmoq” – I. shovqin solmoq, So‘ng tumshug‘ini osmonga cho‘zib, hovlini boshiga ko‘tarib uvladi [10,29]; II. E’zozlamoq. *Ular meni boshiga ko‘tarishadi… Yolg‘iz qizlariman* [10,176]; “boshini xam qilmoq” – uyalmoq. *Sobirova opa bu gaplardan ta’sirlanib, boshini xam qilib qoldi* [10,45]; “boshiga tushmoq” – boshidan o‘tkazmoq, hayotida sodir bo‘lmoq. *Beixtiyor o‘zining bu ahvoli bir kunmas-bir kun tengqur dugonalari boshiga tushishini o‘yladi* [10,51]; “bosh tortmoq” – qabul qilmaslik, bajarmaslik. *Qarorni bajarishdan bosh tortgan, deyishadi* [10,70]; “bosh olib ketmoq” – butunlay tark etib ketmoq. *Shunda Inod bosh olib ketib, qayerda ham yashashi mumkinligi haqida o‘ylab qoldi* [10,71]; “boshiga urmoq” – kerak qilmaslik. *Maktabni boshingizga urasizmi?* [10,78]; “bosh qotirmoq” – o‘ylamoq … *g‘ayritabiiy manzaralar va hayvonlar qiziqtirar, ularni qanday qilib suratga tushirish haqida bosh qotirar edi*... [10,79]; “boshdan chiqarmoq” – unutmoq. *Bu xayolni boshingizdan chiqaring* [10,81]; “boshi aylanmoq” – bahuzur bo‘lmoq. *Qarasam, boshim aylanib, dumalab ketadiganday bo‘laman* [10,83]; “boshidan uchmoq” – xayolidan ko‘tarilmoq. *“Bu yovvoyi meni yemoqchi”, deb o‘ylagan o‘yim boshimdan uchdi* [10,89]; “bosh qo‘ymoq” – botmoq. *Quyosh osmonni aylanib, ufqqa bosh qo‘ya boshlaganda yo‘lovchilar Sanjar tog‘ining ortidagi Oqzov ostida eshaklardan tushishar edi* [10,96]; “bosh qotirmoq” – keraksiz narsaga o‘ylanmoq. *E, kampir, boshimni qotirma* [10,106]; “bosh qilmoq” – rahbar qilmoq. *O‘n ming odamga bosh qilib qo‘yibdi meni davlat, bilasanmi, shuni* [10,108]; “boshida qolmoq” – o‘ziga buyurmoq. *Topgan pulingiz boshingizda qolsin!* [10,112]; “boshidan kechirmoq” – guvoh bo‘lmoq. *So‘ng nuqul urush davrida boshidan kechirganlarini hikoya qiladigan bo‘ldi* [10,160]; “bosh bo‘lmoq” – boshqarmoq, takillamoq. *Hosila to‘yda bosh bo‘lgan magazin direktoridan iltimos qilib, erini ham qo‘shni non do‘koniga ishga oldirdi* [10,218]; “boshini aylantirmoq” – yolg‘onlar bilan aldamoq. *Birpasda shunday qizning boshini aylantirib tashlading-a!* [10,228].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, iboralar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Iboralarning shakllanishida inson tana a’zolari bilan bog‘liq bo‘lgan kodlar muhim vazifa bajarib, ko‘chma ma’noda qo‘llanadi hamda fikrning ta’sir doirasini kengaytiradi. Bir so‘z bilan ularni fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositalar deyish o‘rinlidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. KHUSANOVA M & KHUSANOVA M. ROLE OF OCCASSIONAL UNITS IN FARIDA AFRUZ'S IDIOSTYLE. Thematics Journal of Education Impact Factor (UIF-2020):7.528 Impact Factor (IFS-2020):7.433: https://doi.org/10.5281/zenodo.6467338, P-63-69 12.04.2022.

2. Xusanova, M.A. The use of archaism in the works of Farida Afroz. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 04, volume 96 published April 20, 2021. Soi: http://s-o-i.org/1.1TAS-04-96-51 Doi https://dx.doi.org/10.15863/TAS Scopus ASCC:1208.

3. Xusanova, M.A. The use of expressive phonetic means in farida afroz s works. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 09, volume 101, published September 28, 2021.Soi: http://s-o-i.org/1.1TAS-09-101-81 Doi https://dx.doi.org/10.15863/TAS ScopusASCC:1200.

Худойберганова Д. Лингвокультурологияда маданий код тушунчаси ва талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2019. –№3.

2. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. Тошкент: Академнашр, 2012.

3. Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – №4. – С. 79.

4. Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М., 2006.

5. Ковшова М. Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Издю 2-е. – М. : Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013.

6. Рапай К. Культурный код. Как мы живем, что покупаем и почему. – М.: Юнайтед Пресс, 2010. – 168 с.

7. Свирепо О.А. Метафора как код культуры: Дис. ...канд. филос. наук. – Ростов н/Д, 2002. – 162 с.

8. Тошева Д. Зооним компонентли мақолларнинг лингвотуркологик хусусиятлари: Филол, фан. бўйича фалсафа док. дисс. – Тошкент, 2017.

9. Усмонов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи / Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. –Андижон, 2019.

10. Шукур Холмирзаев. Сайланма. 3 жилдлик. I жилд. –Тошкент, 2003.

11. Шукур Холмирзаев. Сайланма. 3 жилдлик. II жилд. –Тошкент, 2003.

12. Шукур Холмирзаев. Сайланма. 3 жилдлик. III жилд. –Тошкент, 2003.

13. Husanova M.A, Husanova M.A. ROLE OF OCCASSIONAL UNITS IN FARIDA AFRUZ'S IDIOSTYLE/ Thematic Journal of Education Impact Factor(UIF-2020):7.528 Impact Factor(ISF-2020):7.433 12.04.2022. –Б.63-69.

14. Хусанова М.А. Поэтик асарда риторик сўроқ гапларнинг экспрессив имконияти/ Хоразм Маъмун академияси., 2022-5/4. –Б.165-167.

15. Салиева З.И. Концептуальная значимость сентенций в английском и узбекском языках.Автореф дис…, кан. филол. наук – Ташкент, 2010.

16. Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида аёл концептининг лингвокогнитив тадқиқи. Филол.фан.ном….дисс. автореф. –Тошкент, 2012.

17. Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йулларини излаб... // «Ўзбек тили ва адабиёти», Тошкент, 2012, № 5.

18. Rozikova, G. Z., & Yusupova, S. T. (2021). METAPHOR AS A LINGUOCULTUROLOGICAL PHENOMENON. Theoretical & Applied Science, (12), 1086-1088.

19. Rasulova, Azizaxon Muydinovna; Xusanova Ma'rifat Axmadjonovna. POETIK NUTQDA SINONIMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATIONAL AND SOCIAL SCIENCES. ORIENS_Volume 2_ISSUE 10-2.2022 807-811. (Rasulova, Azizakhon Muydinovna; Khusanova Marifat Akhmadjonovna. THE SKILL OF USING SYNONYMS IN POETIC SPEECH. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATIONAL AND SOCIAL SCIENCES. ORIENS_Volume 2_ISSUE 10-2.2022 807-811).